

**O‘ZBEKISTON VA HINDISTON MUNOSABATLARI: TA’LIM VA
MADANIYAT SOHASIDAGI AMALIY HAMKORLIK****Asadova R.B.***tarix fanlari nomzodi, dotsent (Iqtisodiyot va pedagogika universiteti)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston va Hindiston respublikalarining fan va ta’lim sohasidagi o‘zaro hamkorlik masalalari tahlil etilgan va hamkorlik istiqbollari yuzasidan taklif mulohazalari berilgan.

Kalit so‘zlar: Mustaqil O‘zbekiston, Hindiston, xalqaro hamkorlik, xalqaro bitim, qo‘hma kelishuv, ta’lim.

Insoniyat madaniy-ma’naviy rivojlanishining ajralmas qismi ilm-fan bo‘lib, u barcha davrlarda jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib kelgan. Bunda alohida xalqlarning ilmiy yutuqlari doimo butun insoniyat manfaatlari uchun xizmat qilgan. Hozirgi davrdagi O‘zbekiston-Hindiston munosabatlari – bu qadimdan sinovdan o‘tgan ko‘p asrlik an’anaviy o‘zaro manfaatli aloqalarning davomidir. Shu ma’noda O‘zbekiston ham o‘zining jahon ilmi xazinasiga qo‘shgan hissasi bilan munosib o‘rin egallaydi. Ilmiy sohadagi o‘zaro manfaatli hamkorlik O‘zbekiston va Hindiston munosabatlarida ham o‘z aksini topgan. O‘zbekistonning ushbu davlat bilan ilmiy hamkorlikka katta qiziqishi bejiz emas. Hindiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, ilm-fan sohasida ham juda katta muvaffiyatlarga erishdi. Hind olimlari dunyo miqyosidagi ilmiy loyihalar ustida ishlamoqdalar. Shunday qilib, Hindistonning ilmiy-texnikaviy salohiyati ilmiy sohada o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatish nuqtai nazaridan mamlakatimiz e’tiborini tortadi va o‘z navbatida O‘zbekistonning fan va ilm sohasidagi o‘lkan yutuqlari hindistonlik olimlar va Hind ilmiy markazlar tomonidan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish yo‘lida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Shu bois ham, 1992 yilning yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Hindistonning Fan va texnologiya departamenti o‘rtasida ilmiy-texnik hamkorlik Memorandumi tuzildi [1,19].

Ikki mamlakat ilm-fani namoyandalari o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatish va ularni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi shunday markazni tashkil qilish fikri O‘zbekiston va Hindiston davlat rahbarlarining rasmiy uchrashuvlari chog‘ida tug‘ildi. 1993 yilning 29 iyulida esa O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Hindiston Respublikasi hukumati o‘rtasida “Fan va texnika sohasida hamkorlik to‘g‘risida”gi Bitim imzolandi.[2,21]. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi ilmiy hamkorlik turli xil shaklga ega. Bu, avvalambor, ikki mamlakat ilmiy-tekshirish institutlari o‘rtasidagi dolzarb qo‘shma loyihalarining ishlab chiqilishi, ilmiy kadrlar almashinuvi, olimlarning

ilmiy stajirovkalari, ilmiy anjumanlar, simpoziumlar va seminarlarning o'tkazilishidir. Hamkorlikning mana shunday shakllarini ro'yobga chiqarishda Hindiston O'zbekiston Fan va texnologiyalar sohasidagi hamkorlikka ko'maklashish markazi salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Shu bilan birga qo'shma loyihalar uchun birinchi navbatda bugungi kunda ikki mamlakat xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan aniq ilmiy yo'nalishlar asos qilib olinishi ta'kidlandi.[3,29]. Shunday qilib, o'zaro manfaatli ilmiy-texnikaviy hamkorlik uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan bir sharoitda 1995 yilda Toshkentda Ilm-fan va texnika sohasidagi hamkorlikka ko'maklashuvchi Hindiston-O'zbekiston markazi tashkil etildi. Ushbu markaz o'z faoliyati davomida ikki mamlakat o'rtasida turli shakldagi ilmiy aloqalarning o'rnatilishiga har tomonlama yordam bermoqda.

Ta'kidlash joizki, ikki mamlakat xalq xo'jaligining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy aloqalarni rivojlantirish uchun barcha asoslar mavjud. Hindistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'liq qayta ishlash, ekinlarning keskin o'zgaruvchan iqlim sharoitlariga hamda kasalliklarga chidamli va yanada yuqori hosil beruvchi yangi navlarini yaratish istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hind olimlarining bu sohadagi takliflari mamlakatimiz olimlari orasida katta qiziqish uyg'otadi. Chunki O'zbekistonda mazkur yo'nalishda kuchli ilmiy baza yaratilgan. Genetika, Bioorganik ximiya, Mikrobiologiya, O'simlik moddalari kimyo instituti, Toshkent Kimyo-texnologiya instituti, Qishloq xo'jaligi instituti olimlari hind hamkasblari bilan qo'shma ilmiy loyihalar ustida ishlash uchun barcha imkoniyatlarga ega. Shu bois ham, bugungi kunda ular Nyu-Dehli va Haydarobod ilmiy markazlari bilan birgalikda "Sholining yangi istiqbolli navlarini yaratish" yuzasidan hamkorlik ishlarini olib bormoqda.[4,53]. Toshkentdagi "Quyosh" ilmiy ishlab chiqarish majmuasi, Kitobdagi Astronomiya rasadxonasi, Sufa tog'idagi Radioastronomik stansiya kabi astroiqlimiy sharoitlarga ega bo'lgan ajoyib ilmiy markazlarga tayanib xalqaro tadqiqot markazlarini tashkil qilish ikkala davlat uchun qiziqish uyg'otadi. Axborot telekommunikatsiyalari sohasida ham qo'shma ilmiy ishlanmalar olib borish imkoniyati mavjud. Vaholanki, Hindiston bugungi kunda dasturiy mahsulotlar ishlab bo'yicha dunyodagi yetakchi mamlakatlar qatoridan joy olgan, u yerda litsenziyalar bo'yicha o'ta zamonaviy kompyuterlar va mikroprotessorli texnika ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o'rtasidagi Savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya doirasida Hindistonda quyosh energiyasidan foydalanish bo'yicha majmua barpo etish to'g'risida erishilgan bitimni amalga joriy etish ishiga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining "Quyosh fizikasi" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi materialshunoslik instituti mutaxassislari katta hissa qo'shdilar. 1999 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining mazkur birlashmasi olimlari yordamida ikki

mamlakat ilmiy-texnikaviy hamkorligi tarixida ilk bor Hindistonda 1500 vt quvvatiga ega bo'lgan kichik quyosh sandoni o'rnatish va uni Hindistonning Haydarobod shahrida joylashgan Yangi materiallar va kukun metallurgiyasi instituti bilan loyiha amalga oshirildi. Aytish joizki, o'zbek olimlari tomonidan yaratilgan kichik quyosh sandoni fundamental ilmiy-texnikaviy va amaliy tadqiqotlar o'tkazishga mo'ljallangan. Mazkur ishlanma yordamida zichligi 800 vt. sm gacha bo'lgan mujassamlantirilgan quyosh nurlarining moddalarga ta'siri, turli xil qiyin eruvchan birikmalarni sintez qilish va ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbek sandonining quyosh energiyasini o'rganishda va umuman sanoatni rivojlantirishdagi muhim afzalligi shundaki, uning fokal mintaqasida tabiiy toza quyosh nuri quvvatini yaratish mumkin. Bu esa o'z navbatida yuqori elektroizolyatsion xossalarga ega bo'lgan va sintezlangan materiallarning yanada qattiqligini ta'minlaydigan mustahkam materiallarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Albatta, O'zbekiston Fanlar akademiyasining "Quyosh fizikasi" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi olimlarining bu muvaffaqiyati hind mutaxassislarining qiziqishini uyg'otdi. Shu sababli o'zbek olimlari Hindistonda o'choqni o'rnatish, mahalliy mutaxassislarga uni boshqarishni o'rgatish bilan birga, bir qancha amaliy ishlarni ham amalga oshirdilar. Ular asosan kichik quyosh o'chog'ining Hindiston sharoitida ishlashiga qaratilgandir. Ikki mamlakat mutaxassislari tomonidan olib borilayotgan bu ishlar ilm-fan va texnika, qishloq xo'jaligi, sanoat sohalaridagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston-Hindiston Ilmiy-texnikaviy hamkorlikka ko'maklashish markazida ishlangan kompleks dasturning ilk bosqichi hisoblanadi. Bu esa O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi hamkorlikning muttasil rivojlanib borayotganidan dalolatdir.

Mazkur markaz faoliyati doirasida boshqa fan va ishlab chiqarish sohalarida ham ilmiy-texnikaviy dasturlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Eroud (Hindiston) shahridagi Sesuabay qog'oz fabrikasi uchun 1996 yilda tashkil etilgan "ASIL-OSIYO" (Chirchiq) ilmiy-texnikaviy asbobsozlik markazi mutaxassislari qog'ozning oqligini boshqaruvchi tizim yaratdilar, bu tizim hind olimlari tomonidan elektronika vositalari bilan jihozlandi. Bundan tashqari, markaz Hindistonga avtotransport tomonidan atmosferaning ifloslanishini nazorat qilish uchun asboblarning birinchi partiyasini yubordi. Qiziqarli tomoni shundaki, o'zbek mutaxassislari yaratgan asboblarning Hindistonning Atrof-muhit ifloslanishini nazorat qilish bo'yicha markaziy komissiyasida sinovdan o'tdi.[5,55]. Sinov natijalari ko'rsatishicha, o'zbekistonliklarning ishlanmalari ishonchliligi va aniqligi bilan ajralib turadi va xususiyatlari bo'yicha g'arb firmalari mahsulotlaridan qolishmaydi, ammo narxining ikki baravar arzonligi bilan o'ziga jalb qiladi. Shunday xulosaga kelgan hindistonlik hamkorlar O'zbekiston mutaxassislari ishlanmalariga katta qiziqish bildirdi. Keyinchalik esa bunday ekologik texnika ikki mamlakat bozori talablarini qondirish

uchun ishlab chiqarila boshlandi. Shu bilan birga, O'zbekiston pedagogika fanining qator namoyandalari Hindistonning yetakchi ilmiy markazlarida o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, Chennaya shahridagi muhandislik-pedagogika instituti qoshida Hindiston ITEC hukumat dasturi doirasida turli kurslar tashkil etildi. Xususan, Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti xodimi A. Ergashev 2001 yil kuzida "O'quv dasturlari, rejalari va o'quv material tuzish" mavzusi bo'yicha uch oylik kurslarda o'qidi. Xuddi shu institut xodimlari R. Yo'ldoshev va A. Sulaymonovlar 2002 yil boshida "Ta'lim va boshqaruvda kompyuterlardan foydalanish" kurslarida ta'lim oldi. O'zbek mutaxassislarining olgan bilimlari yurtimiz hayotining ta'lim sohasida amaliy ahamiyatga ega bo'ldi. ITEC dasturi bo'yicha O'zbekiston-Hindiston o'rtasida ommaviy axborot vositalari sohasida ham hamkorlik qilinmoqda. 1993-2005 yillar oralig'ida 100 ga yaqin o'zbek jurnalistlari Hindiston Ommaviy axborot vositalari institutida Qo'shilmaslik harakatiga a'zo davlatlar jurnalistlari uchun tashkil etilgan 3-5 oylik kurslarda tahsil olib qaytdilar. Ular orasida F. Nizomov, A. Karimov, A. Qosimov, O'. Mirzayorov, N. Rizaev, R. Mahkamov, H. Saidov, S. Jabborov kabi taniqli jurnalistlar bor. Ular bugungi kunda Hindistonda tahsil olgan o'zbek jurnalistlarining «33+» klubini tashkil etishgan. Jamoatchilik asosida faoliyat olib boruvchi bu klubni Hindiston do'stlari klubi deb atash ham mumkin. Shunday qilib, O'zbekiston va Hindistonning ilm-fan sohasidagi hamkorligi misolida shunga amin bo'ldikki, ikki mamlakat xalqlari ilmiy bilim yutuqlari bilan o'zaro foydali almashinuvlardan ikkala tomon ham manfaatdor. Jahon tajribasidan ma'lumki, bunday almashinuvlar olimlar yutuqlaridan jamiyat taraqqiyoti yo'lida oqilona foydalanish uchun qulay sharoit yaratadi. Tabiiy fanlar yo'nalishidagi ishlanmalar sanoat va qishloq xo'jaligining turli tarmoqlarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ijtimoiy fanlar bo'yicha olib borilayotgan qo'shma tadqiqotlar esa xalqlarning o'tmishdagi va hozirgi paytdagi tarixiy va madaniy-ma'naviy turmushi haqidagi bilimlarimizning kengayishiga xizmat qiladi.

O'z navbatida, Hindiston ham O'zbekiston bilan ta'lim sohasida hamkorlikni qaror toptirish va rivojlantirishdan manfaatdor. Mazkur sohada o'zaro foydali munosabatlarning amalda joriy etilishi, shubhasiz, O'zbekistonda ham, Hindistonda ham olib borilayotgan ta'lim islohotlarini jadallashtirishga bebaho hissa qo'shadi. Buning yaqqol misoli – 1994 yil aprelida Dehli shahri ma'rifat vakillari – qator maktab direktorlari va o'qituvchilari, o'qituvchilar va otaonalar konferensiyasi, tadqiqot va malaka oshirish milliy kengashi rahbarlari va xodimlari, jurnalistlar "Hindiston-O'zbekiston ma'rifat jamiyati"ni tashkil etish bo'yicha tashabbus bilan chiqdilar. Mazkur jamiyat raisi etib Dehli shahrining yirik va taniqli maktab-internatlaridan biri Kengashi raisi bo'lmish S.P. Satsangi saylandi. U maktab va maktab ta'limini takomillashtirish va o'zgartirish ishiga katta hissa qo'shgan arboblardan biri hisoblanadi. Hindiston tomonining mamlakatimiz bilan ta'lim

sohasida yaqin aloqa o'rnatishga intilishi O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi. Vaholanki respublikada ta'lim sohasida va milliy kadrlar tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar xorijiy mamlakatlar tajribasidan keng foydalanishni taqazo etadi. Buning barchasi asosida ta'lim sohasida o'zbek-hind hamkorligini qaror toptirish va rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, shuningdek Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi katta ishlar olib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi taklifi bilan 1995 yil iyulida Toshkent shahrida Respublika o'quv-metodik markazi va poytaxtning 24-o'rta maktabi vakillarining "Hindiston – O'zbekiston ma'rifat jamiyati"ning raisi janob S.P. Satsangi bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Muzokaralar davomida ta'lim va ma'rifat sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish shakli va usullari chuqur muhokama etildi. Xususan, O'zbekiston va Hindiston umumta'lim maktablari o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatish, ta'lim sohasidagi dolzarb muammolar hamda ikki mamlakat ma'rifat vakillari o'rtasida tajriba almashinish bo'yicha seminar, suhbat va bahslar o'tkazish, o'rta ta'lim maktablarida birodar xalqlarning madaniy-ma'rifiy hayoti haqida hikoya qiluvchi turli viktorina va ko'rgazmalar tashkil qilish takliflar ilgari surildi. Zamonaviy o'zbek poeziyasini o'rganishning xulosasi sifatida ikki tomlik kitob nashr etiladi. Unda G'ofur G'ulom, Zulfiya, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Jumaniyoz Jabborov she'rlari tarjimai o'rin olgan[6,2]. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimi olimlarining faqat 1998 yildan 2001 yil oralig'ida Hindistonga qilgan ilmiy safarlariga e'tibor bersak, quyidagi holat namoyon bo'ladi.

O'zbekiston olimlarining Hindistonga tashriflari ko'proq barqarorlikka va izchillikka ega. Masalan, 1998 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining to'rtta olimi Hindistonga ilmiy safar bilan borgan bo'lsa, 2001 yilda ularning soni 40 kishini tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'zbek-hind hamkorligi ilm-fan sohasida izchil kengayib bormoqda, bu hol esa ikki mamlakat xalqlarining madaniy-ma'naviy yaqinlashuvi jarayoniga va davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga bebaho hissa qo'shadi. Davlatlar madaniy-ma'naviy hamkorligining muhim va uzviy qismi hamda ilmiy bilimlarning bevosita tarkibiy asosi ta'lim sohasi va kadrlar tayyorlashdir. Shu sabablarga ko'ra u doim davlatlararo hamkorlikda asosiy o'rin egallab kelgan. Bunday hamkorlikning izchil rivojlanishi O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi munosabatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda e'tiborni shunga qaratish kerakki, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng asosiy strategik vazifa yangi ijtimoiy ongni shakllantirish, haqiqiy demokratik, fuqarolik jamiyatini yaratish va o'lmas insonparvarlik ideallari va qadriyatlarini tiklashdan iborat edi. Qo'yilgan maqsadga erishishda ta'lim sohasi birinchi darajali ahamiyatga ega edi. Mazkur soha davlat siyosati diqqat markazida bo'lgani va 1997 yilda "Ta'lim haqida"gi qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilingani ham bejiz

emas[7,39-65]. O‘zbekiston-Hindiston madaniy hamkorligini rivojlantirishga, shuningdek mamlakatning boshqa madaniy muassasasi – O‘zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalar bo‘yicha do‘stlik jamiyatlari Kengashi ham bebaho ulush qo‘shmoqda (O‘zR DJK). Avval mazkur jamiyat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 25 martdagi qaroriga muvofiq Xalqaro madaniy-ma’rifiy aloqalar Milliy assotsiatsiyasi sifatida tashkil etilgan edi. Keyinchalik 1997 yil 15 mayda u O‘zbekiston Respublikasi xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalar bo‘yicha do‘stlik jamiyatlari Kengashiga aylantirildi[8,156].1994 yil sentabrida Toshkent shahrida ochilgan Hindiston madaniyat markazi O‘zbekiston-Hindiston madaniy hamkorligining rivojlanishi jarayonidagi muhim voqea bo‘ldi va ikki madaniyat – o‘zbek va hind madaniyati o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qilmoqda O‘z faoliyatini mazkur markaz Hindistonning O‘zbekistondagi elchixonasi bilan muvofiqlashtirgan holda hamda mamlakatimiz madaniyat muassasalari bilan yaqin hamkorlikda olib bormoqda. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Markaziy Osiyoda ro‘y berayotgan tezkor islohotlar mintaqadagi hamkorlikni mustahkamlash, O‘zbekiston bilan Hindistonning har tomonlama aloqalarini kuchaytirish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni ochmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga davlatlarimiz o‘rtasida 2011 yilda imzolangan strategik sheriklik to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonot mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbek va hind xalqlarining tarixi, adabiyoti, musiqasi, sanati va arxitekturasidagi o‘xshashliklar, ularning o‘zaro boyishi va birbiriga o‘tishida o‘zbek davlat arbobi, shoir va yozuvchi Z.M.Bobur va uning avlodlari nomi bilan bog‘liq. Ularning beqiyos merosi O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasida ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash, ilmiy va madaniy sohadagi samarali aloqalarni rivojlantirishda kuchli salohiyatga ega. Hindiston Milliy Muzeyi tomonidan Z.M.Boburning 1528 yilda yozilgan «Devoni Bobur» qo‘lyozmasining va 1640 yilda chizilgan «Shaxzoda Dori Shikohning to‘y marosimi» miniatyurasining nusxalarini rasman O‘zbekistonga taqdim etilishi ikki tomonlama madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi ramziy bir qadam bo‘ldi. Hindiston oliy o‘quv yurtlari ichida eng mashhur yonalishlar – bu axborot texnologiyalari, menedjment (boshqaruv) va farmakologiyadir. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasining oliy o‘quv yurtlari 10 dan ortiq hind OTM va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik o‘rnatgan. Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti qoshida Javaharlal Neru nomidagi hindo‘zbek axborot texnologiyalari markazi tashkil yetilib, unda bu sohada professoro‘qituvchilarning malakasi oshirilmoqda va talabalardan yetuk kadrlar tayyorlanmoqda. O‘zbekiston-Hindistonning ilm-fan sohasidagi hamkorligi haqida gap ketganda shuni aytish

kerakki, mamlakatimiz mustaqilligi sharoitida olimlar bilan o‘zaro almashinish yaxshi an’anaga aylanmoqda .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.
2. Esanova, N. (2024). QASHQADARYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEXANIZMINING YARATILISHI. *Interpretation and researches*.
3. O‘zR FA arxivi.Xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik hisobotlari.1993,29-varaq.
4. Esanova, N. (2024). QASHQADARYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEXANIZMINING YARATILISHI. *Interpretation and researches*.
5. MAMATQULOV, B. (2024). O ‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT KORXONALARINING TASHKIL ETILISHI VA HUDUDLAR SANOATINING IXTISOSLASHUVI JARAYONINING TARIXIY TAHLILI (1930-1950 yy). *Acta NUUz*, 1(1.2. 1).
6. Pulatovna, E. N. (2024). UZBEKISTAN'S PLACE IN INTERSTATE INDUSTRY AND TRADE EXHIBITIONS (1991-2021 YEARS). *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 342-343.
7. Pulatovna, B. S. (2022). Improving the mechanisms of educational work in universities (on the example of the training course “methods of educational work”). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(6), 336-344.
8. Pulatovna, E. N. (2024). UZBEKISTAN'S PLACE IN INTERSTATE INDUSTRY AND TRADE EXHIBITIONS (1991-2021 YEARS). *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 342-343.